




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib



Dastlabki ma'lumotlar

Toshkent viloyati bo'yicha 2022- yil yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **16 121,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **13,4** %ga ko'paydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **4 646,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **155,3** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **11 474,7** mlrd. so'mni (**100,3** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1006,8** mlrd. so'mni (**112,1**%) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT

Toshkent viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **16 121,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **113,4** %ni tashkil etdi.



ENG YUQORI ULUSH


Toshkent viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Zangiota tumani **23,7** % ulush bilan **3816,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **71,5** % va yirik korxonalar hissasiga **28,5** % to'g'ri keldi.

ENG QUIYI ULUSH

Toshkent viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Ohangaron tumani **0,9** % ulush bilan **145,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra **11474,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **0,3** %ga ko'paydi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi hududlar kesimida taqqoslanganda, bu ko'rsatkich Ohangaron (98,0%), Oqqo'rg'on (97,8%), Parkent (97,1%) hamda Quyi Chirchiq (95,7 %) tumanlari yuqori bo'lgan.





2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar, Zangiota (131,6 %) va Toshkent (131,2 %) tumanlari hamda Nurafshon (114,2 %) shaharda qayd etildi.



Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Toshkent viloyati	16 121,1	114,3	4 646,4	155,3	11 474,4	103,0
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	894,1	114,2	616,5	125,3	277,6	93,0
Olmalik	1085,8	104,6	163,2	114,3	922,5	104,0
Angren	982,8	117,3	397,2	186,4	585,6	81,9
Bekobod	667,9	105,6	84,8	68,9	583,1	115,9
Ohangaron	299,0	106,1	21,3	113,2	277,7	109,0
Chirchiq	775,0	104,1	281,1	139,0	493,9	80,3
Yangiyo'l	811,2	107,6	41,8	142,2	769,4	90,5
<i>Tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	510,3	103,9	10,1	120,8	500,2	198,5
Ohangaron	145,5	104,5	3,2	29,5	142,3	120,1
Bekobod	281,7	105,9	20,6	2,6 m.	261,1	83,8
Bo'stonliq	847,7	105,2	298,8	95,9	548,9	106,0
Bo'ka	426,9	103,4	31,3	3,2 m.	395,6	153,3
Quyichirchiq	235,4	109,5	10,2	2,4 m.	225,2	111,9
Zangiota	3816,8	131,6	1 853,5	192,8	1963,3	100,5
Yuqori Chirchiq	455,0	105,6	34,3	2,3 m.	420,7	103,8
Qibray	995,8	112,6	165,1	137,1	830,8	110,6
Parkent	498,5	110,4	14,2	143,3	484,3	185,7
Piskent	314,3	114,9	29,3	2,3 m.	285,0	101,6
O'rta Chirchiq	210,5	115,6	25,8	106,9	184,7	122,1
Chinoz	585,1	113,3	155,6	160,9	429,6	101,6
Yangiyo'l	459,9	103,8	48,1	184,9	411,8	93,3
Toshkent	820,8	131,2	339,5	2,3 m.	481,3	101,8

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **155,3 %**ga o'sdi va **4646,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **28,5 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **11474,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **0,3 %**ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **71,5 %**ni tashkil etdi.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
TUMAN VA SHAHARLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ohangaron (98,1 %), Oqqo'rg'on (98,1 %), Parkent (97,2 %), Quyi Chirchiq (95,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **30,3** %ni tashkil etib, eng katta ulush Nurafshon (74,0 %) shahri va Zangiota (54,1 %) tumanida kuzatildi.






**TOSHKENT VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON
BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2022- yil yanvar-iyul oylarida o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **5462,8** ming. so'mni (2021- yilning mos davriga nisbatan **14,7** %ga o'sdi) tashkil qildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Zangiota (**22 896,3** ming. so'm) tumani va Nurafshon (**16 839,1** ming. so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.




	Hajm, ming. so'm	2021- yil yanvar-iyulga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	5462,8	115,6
<i>Shaharlar:</i>		
Nurafshon	16 839,1	111,3
Olmalik	7 983,9	103,0
Angren	5 606,9	128,6
Bekobod	6 653,0	102,3
Ohangaron	7 439,5	103,7
Chirchiq	4 680,0	102,6
Yangiyo'l	10 090,6	83,1
<i>Tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	4 695,1	102,0
Ohangaron	1 353,9	94,6
Bekobod	1 749,9	105,3
Bo'stonliq	4 889,2	104,0
Bo'ka	3 266,5	101,3
Quyichirchiq	2 092,8	107,6
Zangiota	22 896,3	153,7
Yuqori Chirchiq	3 365,6	109,4
Qibray	5 780,0	132,7
Parkent	2 883,6	101,0
Piskent	3 022,4	113,1
O'rta Chirchiq	1 580,8	123,8
Chinoz	4 179,9	110,8
Yangiyo'l	2 381,9	113,0
Toshkent	4 345,7	127,9

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



Tohkent viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyul oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 006,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **5,1** %ga ko'paygan. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **351,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **93,7** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **534,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **113,1** %) tashkil etdi.



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2022- yilning yanvar-iyul oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **351,0** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **655,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Toshkent viloyati	1006,8	112,1	351,0	95,4	655,8	123,7
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	2,7	184,0	2,7	184,0	-	-
Olmaliq	43,0	122,3	15,7	110,0	27,3	130,7
Angren	42,7	147,1	42,7	147,1	-	-
Bekobod	87,2	181,9	87,2	181,9	-	-
Ohangaron	12,1	101,9	12,1	101,9	-	-
Chirchiq	15,2	80,4	15,2	80,4	-	-
Yangiyo'l	232,9	127,1	88,6	100,9	144,2	154,2
<i>Tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	40,6	72,0	14,7	104,8	25,8	61,3
Ohangaron	0,0	-	-	-	-	-
Bekobod	41,6	120,7	-	-	41,6	120,7
Bo'stonliq	120,6	158,1	4,5	103,3	116,1	161,4
Bo'ka	50,4	55,1	13,3	28,6	37,1	82,9
Quy Chirchiq	40,6	116,6	4,4	51,6	36,2	126,3
Zangiota	32,1	121,8	0,7	53,0	31,4	128,9
Yuqori Chirchiq	4,2	36,5	4,2	36,5	-	-
Qibray	89,1	123,6	-	-	89,1	127,8
Parkent	40,4	53,9	12,8	49,8	27,5	56,0
Piskent	64,8	144,5	9,6	99,7	54,2	158,5
O'rta Chirchiq	0,0	-	-	-	-	-
Chinoz	35,1	111,3	16,0	70,4	19,1	2,2 m.
Yangiyo'l	0,0	-	-	-	-	-
Toshkent	10,4	75,8	4,8	62,3	5,6	93,0



**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
DEHQON BOZORLARI**



6,1
mlrd. so'm

Tuzlamalar



165,6
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



17,8
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

38,6
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



11,6
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

15,2
mlrd. so'm



Tuxum

33,3
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

7,9
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

8,8
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari** (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

2022- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning barcha tuman va shaharlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **351,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**165,6** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

13,2
mlrd. so'm




Ziravorlar

32,9
mlrd. so'm



Tovuq go'shti


2022- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning barcha tuman va shaharlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **655,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **390,1** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **132,1** mlrd. so'mni, otlar **131,2** mlrd. so'mni, parrandalar **1,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2022- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,9 %**ni tashkil etib, **405,5 mlrd. so'm**ga yetdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan **14,3 %**ga o'sdi. Bunda jami savdo aylanmasining **75,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Toshkent viloyati	405,5	114,3	101,3	148,7	304,2	106,1
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	13,1	105,6	-	-	13,1	105,6
Olmaliq	73,2	101,3	52,2	99,5	21,0	106,1
Angren	27,6	103,1	8,3	-	19,3	72,0
Bekobod	11,4	106,5	-	-	11,4	106,5
Ohangaron	19,7	107,0	12,1	107,8	7,6	105,8
Chirchiq	53,9	131,6	24,4	6,4	29,5	79,4
Yangiyo'l	16,0	106,3	-	-	16,0	106,3
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	12,0	106,9	-	-	12,0	106,9
Ohangaron	3,6	105,9	-	-	3,6	105,8
Bekobod	7,1	106,0	-	-	7,1	106,0
Bo'stonliq	37,6	2,4 m.	-	-	37,6	2,5 m.
Bo'ka	5,6	106,2	-	-	5,6	106,2
Quy Chirchiq	5,2	106,2	-	-	5,2	106,2
Zangiota	15,8	106,6	0,1	156,2	15,7	106,5
Yuqori Chirchiq	14,0	106,1	-	-	14,0	106,1
Qibray	33,4	105,9	-	-	33,4	105,9
Parkent	8,8	106,5	-	-	8,8	106,5
Piskent	4,0	106,0	-	-	4,0	106,0
O'rta Chirchiq	9,8	105,9	-	-	9,8	105,9
Chinoz	3,2	105,8	-	-	3,2	105,8
Yangiyo'l	13,9	116,5	4,2	-	9,7	81,0
Toshkent	16,6	106,4	-	-	16,6	106,4

2021- yil
yanvar-iyul

2022- yil
yanvar-iyul



2022- yil yanvar-iyul oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi ko'paygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi **405,5** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 114,3 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha **404,8** mlrd. so'm nodavlat mulkiga hamda **0,7** mlrd. so'm davlat mulkiga to'g'ri keldi.

	Jami, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Toshkent viloyati	405,5	100,0	404,8	0,7	99,8	0,2
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	13,1	3,2	13,1			
Olmaliq	73,2	18,0	73,2			
Angren	27,6	6,8	27,6			
Bekobod	11,4	2,8	11,4			
Ohangaron	19,7	4,9	19,7			
Chirchiq	53,9	13,3	53,2	0,7	98,7	1,3
Yangiyo'l	16,0	3,9	16,0			
<i>Tumanlar:</i>	0,0	0,0	0,0			
Oqqo'rg'on	12,0	3,0	12,0			
Ohangaron	3,6	0,9	3,6			
Bekobod	7,1	1,8	7,1			
Bo'stonliq	37,6	9,3	37,6			
Bo'ka	5,6	1,4	5,6			
Quy Chirchiq	5,2	1,3	5,2			
Zangiota	15,8	3,9	15,8			
Yuqori Chirchiq	14,0	3,4	14,0			
Qibray	33,4	8,2	33,4			
Parkent	8,8	2,2	8,8			
Piskent	4,0	1,0	4,0			
O'rta Chirchiq	9,8	2,4	9,8			
Chinoz	3,2	0,8	3,2			
Yangiyo'l	13,9	3,4	13,9			
Toshkent	16,6	4,1	16,6			

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Toshkent viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **8 467,5**mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **15,2 %**ga o'sdi. Shu jumladan, kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **5 935,2** mlrd. so'mni (**16,8 %**ga o'sdi) tashkil etdi. Ushbu sektor jami viloyat ulgurji savdo tovar aylanmasida **70,8 %** ulushni tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonona

Kichik biznes

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Toshkent (29,5 m.) tumani va Bekobod (3,6 m.) hamda Chichiq (3,3 m.) shaharlarida kuzatildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Toshkent viloyati	7 020,1	115,2	2 049,7	111,6	4 970,4	116,8
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon sh.	233,3	125,0	194,1	143,0	39,2	77,0
Olmalik sh.	192,4	106,4	34,5	76,2	157,9	116,5
Angren sh.	183,4	104,1	73,1	85,3	110,3	122,0
Bekobod sh.	61,7	107,6	0,8	3,6 m.	60,9	106,6
Ohangaron sh.	435,7	117,3	77,6	120,1	358,1	116,7
Chirchiq sh.	132,1	111,9	37,2	3,3 m.	94,9	88,9
Yangiyo'l sh.	169,1	116,6	-	-	169,1	116,6
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	4,0	117,7	0,0	11,7 m.	4,0	116,8
Ohangaron	105,8	80,8	0,1	0,2	105,7	128,5
Bekobod	42,0	87,5	16,1	46,9	25,9	189,9
Bo'stonliq	276,2	88,7	125,1	69,1	151,1	116,0
Bo'ka	42,1	88,9	-	-	42,1	2,2 m.
Quy Chirchiq	82,4	111,4	0,1	1,4	82,3	119,9
Zangiota	1 716,4	110,7	151,9	127,1	1 564,5	109,3
Yuqori Chirchiq	183,3	114,5	0,7	79,4	182,6	114,7
Qibray	1 425,9	117,8	950,4	118,6	475,5	116,2
Parkent	57,3	172,3	24,5	-	32,8	98,8
Piskent	39,8	107,4	0,4	4,8	39,4	133,2
O'rta Chirchiq	294,4	106,9	117,6	67,1	176,8	176,2
Chinoz	191,1	100,8	2,5	3,0	188,6	178,0
Yangiyo'l	121,9	116,4	-	-	121,9	116,8
Toshkent	1 029,8	151,2	243,0	29,5 m.	786,8	117,0

**YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES
SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR
AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra 8 467,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2021- yilning mos davriga nisbatan **16,8%**ga o'sdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi hududlar kesimida taqqoslanganda, bu ko'rsatkich Yangiyo'l (100 %) shahar, Bo'ka va Yangiyo'l (100 %) tumanlarida yuqori bo'ldi.



Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: (71) 202-86-59